

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**Qo'lyozma huquqi asosida
UDK 334.012.3:304:364(571.16)**

HIDOYATOV DAVRON ABDULPATTAXOVICH

**IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA DAVLAT-
XUSUSIY SHERIKCHILIKNI RIVOJLANTIRISH**

08.00.13 – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasi**

**Ilmiy rahbar:
t.f.d., prof. K.A.Sharipov**

Tashkent – 2024

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYA SHAROITIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKCHILIKNI NAZARIY ASOSLARI.....	13
1.1-§. Davlat-xususiy sherikchilikning iqtisodiy mohiyati va asosiy xususiyatlari.....	13
1.2-§. Zamonaviy iqtisodiyotda davlat va xususiy biznes o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik shakllari, modellari va tamoyillarini baholashda tizimli yondashuv.....	30
1.3-§. Davlat-xususiy sherikchilik mexanizmini shakllantirish va rivojlantirish metodologik masalalari.....	49
I bob bo‘yicha xulosalar.....	61
II BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XOZIRGI SHAROITDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKCHILIK LOYIHALARINI AMALGA OSHIRISH JARAYONINI.....	64
2.1-§. O‘zbekistonda davlat-xususiy sherikchilikni tashkil etish va rivojlantirishning zamonaviy holati.....	64
2.2-§. Davlat-xususiy sherikchilik loyihalarini moliyalashtirishning o‘ziga xos jihatlari.....	77
2.3-§. Davlat-xususiy sherikchilik loyihalarining muvaffaqiyatli bo‘lish konseptual modeli.....	84
II bob bo‘yicha xulosalar	103
III BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT- XUSUSIY SHERIKCHILIK VA DXSH LOYIHALARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	106
3.1-§. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishida davlat-xususiy sherikchilikni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari	106
3.2-§. Davlat-xususiy sherikchilik samaradorligini baholashga metodik yondashuv.....	116
III bob bo‘yicha xulosalar.....	134
XULOSA.....	136
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	140
ILOVA.....	147

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashuv hamda iqtisodiy beqarorlikning kuchayishi sharoitida milliy raqobatbardoshlikni ta'minlash mavjud iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanishga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Ayniqsa, milliy darajada iqtisodiy faoliyatni davlat hamda xususiy sektorning hamkorligiga asoslangan aralash shakllari ishtirokida tashkil etish orqali ijtimoiy ahamiyatdagi vazifalarni hal etish, samaradorlikning nisbatan yuqori darajasini ta'minlash, ijtimoiy infratuzilma obyektlariga xususiy investitsiyalarni jalb etish va ularni samarali boshqarishni ta'minlash o'zining ijobiy natijalarini namoyon etmoqda. "Bugungi kunda ko'plab mamlakatlarning milliy hukumatlari an'anaviy tarzda davlat monopoliyasini tashkil etuvchi yoki uning tasarrufida bo'lgan xo'jalik faoliyati turlari, masalan: gaz va energetika xo'jaligi obyektlari, suv ta'minoti va oqova suv tizimi, transport va kommunikatsiya tizimini o'zlarining to'liq majburiyati ostidagi soha deb hisoblamaydilar. Biroq, ularni davlat-xususiy sherikligi sharoitida biznesga o'tkazish bilan bir qatorda, ular mazkur obyektlar ustidan mulkiy huquq, shuningdek xususiy kompaniyalar faoliyati ustidan tartibga solish va qat'iy nazorat huquqini saqlab qoladilar"¹. Ushbu faoliyatning yuqori darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ayniqsa iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish masalalarining dolzarbligini namoyon etadi.

Jahonda global raqobat kuchayib borayotgan sharoitda milliy iqtisodiyotning salohiyatidan samarali foydalanishning muhim sharti sifatida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish masalalariga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Milliy iqtisodiyotning xususiy va davlat sektorlari o'rtasidagi hamkorlikning innovatsion shakllarini aniqlash, davlat-xususiy sheriklikning imkoniyatlarini baholashning uslubiy asoslarini yaratish, mamlakatda uy-joy qurilishi, sog'liqni saqlash, maktab ta'limi va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirishda davlat-xususiy sheriklik imkoniyatlaridan foydalanish, mazkur

¹ Varnavskiy V.G. Upravleniye gosudarstvenno-chastnymi partnerstvami za rubejom // Вопросы gosudarstvennogo i munitsipalnogo upravleniya. 2012. № 2. – S.135. - <https://vgmu.hse.ru>

loyihalarni moliyalashtirish fondlarini yaratish, davlat-xususiy sheriklik modeli va uning elementlari asosida tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar faoliyati samaradorligini baholash, bu borada innovatsion uslub va usullardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish mazkur ilmiy tadqiqot ishlarining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ishlab chiqarish samaradorligi, mehnat unumdorligi va intensivligini oshirish imkonini beruvchi tadbirkorlikning yangi tashkiliy-iqtisodiy shakli sifatida davlat-xususiy sheriklikka alohida e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy sharoitda iqtisodiy siyosatning samarali vositasi sifatida qaralayotgan davlat-xususiy sheriklik davlat tomonidan belgilab berilgan strategik yo'nalishlarda biznesning innovatsion va investitsiya salohiyatidan maqsadli foydalanish imkonini beradi. DXSH mexanizmlari davlat byudjeti yukini kamaytirish, ijtimoiy ahamiyatga ega davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun xususiy biznesning afzalliklari (vakolatlari, samarali boshqaruv usullari, innovatsiyalar kiritish imkoniyati)dan foydalanish, iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish sharoitida tadbirkorlik faolligini rag'batlantirish, infratuzilma tarmoqlariga qo'shimcha investitsiya imkoniyatlarini yaratish orqali milliy iqtisodiyotga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Davlat va xususiy biznesning o'zaro hamkorligi davlat va xususiy sektor resurslarini birlashtirish orqali asosiy ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni samarali hal qilish imkonini beradi. Davlat-xususiy sheriklik institutini shakllantirish va rivojlantirish xususiy va jamoat manfaatlari mutanosibligi, davlat va xususiy tadbirkorlik subektlari faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlariga samarali erishish, innovatsion rivojlanishning asosiy tendensiyalarining amalga oshirilishi, tadbirkorlikning yuqori darajadagi iqtisodiy faolligi, davlat samaradorligi va jamiyat farovonligini ta'minlashni taqozo etib, mazkur vazifalarning ilmiy yechimiga yo'naltirilgan tadqiqot ishlari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2023-yil 18-sentyabrdagi PQ-307-son "O'zbekistonda

davlat-xususiy sheriklik loyihalarini ishlab chiqish jamg'armasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 20-oktyabrdagi PQ-3980-son "Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning huquqiy va institutsional bazasini yaratish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 23-oktyabrdagi 558-son "Davlat-xususiy sheriklik loyihalaridan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan davlatning fiskal majburiyatlarini boshqarish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida", 2021-yil 11-avgustdagi 509-son "Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish va ularni moliyalashtirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 26-apreldagi 259-son "Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibini takomillashtirish to'g'risida", 2018-yil 13-dekabrda 1009-son "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning "Demokratik-huquqiy jamiyatni ma'naviy-ahloqiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Davlat-xususiy sheriklikning nazariy va amaliy muammolari bir qator xorijlik olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, bu borada V.Varnavskiy, S.Silvestrov, M.Deryabina, M.Vilisov, S.Sivayev, I.Makarov, A.Bajenov, A.Vorotnikov, R.Martusevich, A.Klimenko, V.Korolev, L.Sharinger va boshqalarning ilmiy ishlarini ta'kidlash mumkin².

² Beliskaya A.V. Pravovoye regulirovaniye gosudarstvenno-chastnogo partnerstva: Monografiya. – M.: Statut, 2012; Varnavskiy, V.G., Klimenko, A.B., Korolev, V.A., Bajenov, A.B., Vorotnikov, A.M. Gosudarstvenno-chastnoye partnerstvo: teoriya i praktika: uchebnoye posobiye. M.: Izd. dom Gos. un-ta. - Vysshey shkoly ekonomiki, 2010.- 541 s.; Gorbunov A.A. Vzaimodeystviye vlastnykh i predprinimatelskix struktur: teoriya i praktika: monografiya / A.A. Gorbunov, G.I. Kasatkin / pod red. d. e. n., prof. A.A. Gorbunova. – SPb.: Izd-vo MFIN, 2005.; Gosudarstvenno-chastnoye partnerstvo v innovatsionnykh sistemax / Pod общ. red. S.N. Silvestrova. – M.: Izdatelstvo LKI, 2008; Delmon, Dj. Gosudarstvenno-chastnoye partnerstvo v infrastrukture: prakticheskoye rukovodstvo dlya organov

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan S.S.G‘ulomov, A.Sh.Bekmurodov, M.R.Baltabayev, B.Yu.Xodiyev, M.S.Qosimova, D.K.Ahmedov, T.M.Ahmedov, N.M.Mahmudov, B.B.Berkinov, M.A.Ikromov, U.I.Jumaniyozov va boshqalarning ilmiy ishlarida iqtisodiyotni rivojlantirishda davlat va xususiy biznesning roli va o‘rni haqidagi ayrim masalalar ko‘rib chiqilgan³.

Zamonaviy sharoitda rivojlangan mamlakatlarda to‘plangan ilmiy vositalarni moslashtirish imkoniyatlari masalasi dolzarb bo‘lib, shuningdek, davlat va xususiy sektorning o‘zaro manfaatli hamkorligi sharoitida investitsiya loyihalarini amaliy jihatdan bajarish uchun uslubiy platformani ishlab chiqish zarurati paydo bo‘lmoqda. Demak, mavzuning dolzarbligi, uning ilmiy ishlanma darajasi va amaliy ahamiyati dissertatsiya tadqiqotining mavzusini, maqsad va vazifalarini tanlashni belgilab berdi.

Dissertatsiya mavzusining tadqiqot bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, shuningdek, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini operativ yangilashda marketing va

gosudarstvennoy vlasti (per. s angl.) / Dj. Delmon. Astana: IS «Apelsin», 2010. - 261 s.; Zapatrina I. Publichno-chastnoye partnerstvo: potentsial dlya razvivayushchix ekonomik. Monografiya.– Saarbrucken: Lambert Academic Publishing, 2013; Zeldner A.G. Partnerskiye otnosheniya gosudarstva, biznesa i obshchestva v usloviyax smeshannoy ekonomiki. – M.: Ekonomicheskkiye nauki, 2010. – 214 s.; Ignatyuk N.A. Gosudarstvenno-chastnoye partnerstvo // Uchebnik. – M.: Yustitsinform, 2012; Larin, S.N. Gosudarstvenno-chastnoye partnerstvo: zarubezhnyy opyt i rossiyskiye realii / S.N. Larin // Gosudarstvenno-chastnoye partnerstvo v innovatsionnykh sistemax / Pod общ. red. S.N. Silvestrova M.: Izdatelstvo LKI, 2008. – 312 s., s. 51–62.; Levitin I.E. Razvitiye gosudarstvenno-chastnogo partnerstva na transporte. – M.: VINITI RAN, 2010.; Pankratov, A.A. Gosudarstvenno-chastnoye partnerstvo v sovremennoy praktike: osnovnyye teoreticheskiye i prakticheskiye problemy. Monografiya / A.A. Pankratov. M.: «Ankil», 2010. - 248 s.

³ S.S.Gulyamov, I.S.Ochilov, S.O.Ganixodjayev. O‘zbekiston iqtisodiyotining o‘shish va barqaror rivojlanish omillari. Bilimga tayangan innovatsion iqtisodiyot. O‘quv-metodik qo‘llanma. –T.: «Fan va texnologiya», 2016, 136 bet.; A.Sh.Bekmurodov. O‘zbekiston iqtisodiyotining innovatsion yuksalish modelini izlab. Toshkent: “XXI ASR”, 2018. – 215 b.; M. Boltabayev, M. Qosimova, B. G‘oyibnazarov, Sh. Ergashxodjayeva, A. Samadov, Sh. Otajonov. Kichik biznes va tadbirkorlik. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tonumidan 5340200 — Menejment ta’lim yo‘nalishi talabarlari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan. – T.: «NOSHIR», 2011; B.B.Berkinov, U.Q.Axmedov. Uy xo‘jaliklari rivojlanishi va oila daromadlarini oshirish istiqbollari. –T.: «Fan va texnologiya», 2013, 144 bet.; Djumaniyozov U.I. Davlat-xususiy sherikchiligi asosida korporativ boshqaruvni rivojlantirishning ayrim nazariy-uslubiy masalalari// “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. 2017 yil № 3, may-iyun, 9-bet.; Djumaniyozov U.I. Davlat-xususiy sherikchiligi asosida uy-joy qurilishi sohasida korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun eziqlan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent: TDIU, 2017. – 57 b.

menejmentning innovatsion konsepsiyalaridan foydalanish metodologiyasi” (2020-2021 yy.) ilmiy-tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

aholiga talab yuqori bo‘lgan xizmatlar ko‘rsatuvchi muhim obyektlarni yaratish, moliyalashtirish va ulardan foydalanishni ta‘minlash maqsadida milliy iqtisodiyotning xususiy va davlat sektorlari o‘rtasidagi hamkorlikning alohida turi sifatida davlat-xususiy sheriklikning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

mamlakatda amal qilayotgan davlat-xususiy sheriklik shakllarining innovatsion yo‘naltirilgan iqtisodiyotini shakllantirish va rivojlantirish talablariga, infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish vazifalariga muvofiqligini belgilash;

xorij tajribasidan kelib chiqib, mamlakatda uy-joy qurilishi, sog‘liqni saqlash, maktab ta‘limi va boshqa sohalarda DXSH loyihalarini ishlab chiqish muammolarini hal etish uchun mo‘ljallangan moliyalashtirish fondlarini yaratish imkoniyatlarini aniqlash;

davlat-xususiy sheriklik modeli va uning elementlari asosida tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar faoliyati natijaviyligi va samaradorligi darajasini baholash;

mamlakat iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishini ta‘minlash uchun DXSH loyihalari asosida innovatsion uslub va usullardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat-xususiy sheriklik doirasida o‘zaro ta‘sir jarayonida ko‘rib chiqiladigan hokimiyat va biznes tizimlari institutlari belgilangan.

Tadqiqotning predmetini iqtisodiyotda davlat-xususiy sheriklik institutining rivojlanishi jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada umumiy va xususiy usullar, dialektik-evolyutsion tadqiqot usuli, rasmiy mantiqiy usullar, tizimli yondashuv usullari,

mavhum-mantiqiy, iqtisodiy-statistik, tarkibiy-funksional va qiyosiy tahlil usullari, taqqoslash, guruhlash, mantiqiy sxemalar ishlab chiqish, korrelyatsion va regression tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “davlat-xususiy sheriklik” tushunchasi davlat yoki hududiy mulkning ijtimoiy va muhandislik infratuzilmasi obyektlarini yaratish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash, texnik xizmat ko‘rsatish yoki ulardan foydalanish maqsadida jamiyat manfaati ga oid zarur loyihalarni amalga oshirish uchun qonuniy rasmiylashtirilgan shartnoma asosida amalga oshiriluvchi, davlat va mahalliy yoki xorijiy xususiy biznesning mamlakat iqtisodiyotining izchil rivojlanishini ta’minlaydigan innovatsion mexanizm yaratishga qaratilgan qonuniy mustahkamlangan o‘zaro manfaatli hamkorligi nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

iqtisodiyotning muhim tarmoq va sohalari bo‘yicha davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarni amalga oshirishda tijorat banklari tomonidan loyiha ko‘lami va murakkablik darajasidan kelib chiqqan holda, DXSH loyihasi umumiy qiymatining 80 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda, imtiyozli davri bilan 15 yilga qadar muddatga tijorat kreditlarini ajratish orqali rag‘batlantirish taklifi ishlab chiqilgan;

milliy iqtisodiyotning samarali faoliyat ko‘rsatishi innovatsion faoliyatning turli sohalarida davlat institutlari va kichik biznesning konstruktiv o‘zaro hamkorligiga asoslanishi kerakligi shartiga ko‘ra mahalliy hokimiyatlar tomonidan “quyidan – yuqoriga” tamoyili asosida davlat-xususiy sheriklik bo‘yicha loyihalarni shakllantiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi tuzilma faoliyatini yo‘lga qo‘yish taklifi asoslangan;

O‘zbekistonda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi sheriklik shakllari, ko‘rsatilayotgan xizmatlar va ishlab chiqarilayotgan tovarlar turlari o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlikka asoslangan ekonometrik model yordamida davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarning 2030-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

davlat va mahalliy yoki xorijiy xususiy biznesning mamlakat iqtisodiyotining izchil rivojlanishini ta'minlaydigan innovatsion mexanizm yaratishga qaratilgan qonuniy mustahkamlangan o'zaro manfaatli hamkorligi bo'lgan davlat-xususiy sheriklikning mualliflik talqini shakllantirilgan;

davlat-xususiy sheriklikning davlat yoki hududiy mulk ijtimoiy va muhandislik infratuzilmasi obyektlarini yaratish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash, texnik xizmat ko'rsatish yoki ulardan foydalanish maqsadida jamiyat uchun zarur loyihalarni amalga oshirish uchun qonuniy rasmiylashtirilgan shartnoma asosida amalga oshirilishi asoslangan;

davlat va xususiy sektor o'rtasidagi sheriklik shakllari ko'rsatilayotgan xizmatlar va ishlab chiqarilayotgan tovarlar turlari, qo'llanilayotgan usullar va huquqiy rejimga ko'ra farqlanishi asoslangan;

davlat-xususiy sheriklikning jamoat manfaatlarini qondirishga qaratilgan asosiy tamoyillari ishlab chiqilgan hamda har bir tamoyilning xususiyatlari ochib berilgan;

shariklikni tashkil etish orqali davlat xususiy biznesni faoliyatning ilgari erishib bo'lmaydigan sohalariga kirib borishi uchun iqtisodiy makonni sezilarli darajada kengaytirayotgani asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olib borilgan tadqiqot metodologiyasi, davlat-xususiy sheriklik sohasidagi faoliyatni tartibga soluvchi amaldagi qonun hujjatlarining normativ-huquqiy bazasini o'z ichiga olgan reprezentativ tadqiqot bazasi, statistik manbalar, axborot agentliklari va xizmatlari materiallari, ilmiy-tadqiqot muassasalari materiallaridan foydalanganlik, dissertatsiya xulosalarining asoslilik va ishonchliligi yetakchi xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan so'nggi tadqiqotlarni hisobga olgan holda maqsad, vazifalar va nazariy umumlashmalarni shakllantirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati zamonaviy innovatsion-yo'naltirilgan iqtisodiyot sharoitida davlat-xususiy sheriklik mexanizmi faoliyatini takomillashtirishga oid ilmiy-metodik yondashuvlar, ustuvor ijtimoiy ahamiyatga molik vazifalarni hal etishda

iqtisodiyotning davlat sektorini xususiy sektor bilan hamkorlikda izchil rivojlantirishini ta'minlaydigan usul va uslublardan mazkur yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarning nazariy-uslubiy asosini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyada bayon etilgan xulosa, taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini modernizatsiyalash va tarkibiy qayta qurish sharoitida davlat va tadbirkorlik tuzilmalari o'rtasidagi sheriklik tizimini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini tayyorlashda, boshqaruvning turli darajalarida davlat-xususiy sheriklik modellari va mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirishda, tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan qator, jumladan, "Iqtisodiyot nazariyasi asoslari", "Makroiqtisodiyot", "Mikroiqtisodiyot", "Bozor iqtisodiyotini tartibga solish nazariyasi" va boshqa fanlar bo'yicha yangi dasturlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "davlat-xususiy sheriklik" tushunchasini davlat yoki hududiy mulkning ijtimoiy va muhandislik infratuzilmasi obyektlarini yaratish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash, texnik xizmat ko'rsatish yoki ulardan foydalanish maqsadida jamiyat manfaatiga oid zarur loyihalarni amalga oshirish uchun qonuniy rasmiylashtirilgan shartnoma asosida amalga oshiriluvchi, davlat va mahalliy yoki xorijiy xususiy biznesning mamlakat iqtisodiyotining izchil rivojlanishini ta'minlaydigan innovatsion mexanizm yaratishga qaratilgan qonuniy mustahkamlangan o'zaro manfaatli hamkorligi nuqtai nazaridan takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Moliya asoslari" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2024-yil 29-fevraldagi 45-son buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda davlat va mahalliy yoki xorijiy xususiy biznesning mamlakat iqtisodiyotining izchil

rivojlanishini ta'minlaydigan innovatsion mexanizm yaratishga qaratilgan qonuniy mustahkamlangan o'zaro manfaatli hamkorligi nuqtai nazaridan takomillashtirilgan "davlat-xususiy sheriklik" tushunchasi bo'yicha nazariy bilimlarini chuqurlashtirish imkoni yaratilgan;

iqtisodiyotning muhim tarmoq va sohalari bo'yicha davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarni amalga oshirishda tijorat banklari tomonidan loyiha ko'lam va murakkablik darajasidan kelib chiqqan holda, DXSh loyihasi umumiy qiymatining 80 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda, imtiyozli davri bilan 15 yilga qadar muddatga tijorat kreditlarini ajratish orqali rag'batlantirish taklifi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-avgustdagi 509-son qaroriga 1-ilova "Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirish tartibi to'g'risida nizom"da o'z ifodasini topgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2024-yil 28-oktabrdagi 02/11-17/3254-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarni tijorat banklari tomonidan loyiha ko'lam va murakkablik darajasidan kelib chiqqan holda tijorat kreditlari vositasida uzoq muddatli va imtiyozli moliyalashtirish imkoni yaratilgan;

milliy iqtisodiyotning samarali faoliyat ko'rsatishi innovatsion faoliyatning turli sohalarida davlat institutlari va kichik biznesning konstruktiv o'zaro hamkorligiga asoslanishi kerakligi shartiga ko'ra mahalliy hokimiyatlar tomonidan "quyidan – yuqoriga" tamoyili asosida davlat-xususiy sheriklik bo'yicha loyihalarni shakllantiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi tuzilma faoliyatini yo'lga qo'yish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan mamlakatda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2024-yil 28-oktabrdagi 02/11-17/3254-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida respublika hududlaridagi mazkur tuzilmalar faoliyati orqali davlat-xususiy sheriklik bo'yicha loyihalarni shakllantirish va qo'llab-quvvatlash imkoni yaratilgan;

O'zbekistonda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi sheriklik shakllari, ko'rsatilayotgan xizmatlar va ishlab chiqarilayotgan tovarlar turlari o'rtasidagi

korrelyatsion bog'liqlikka asoslangan ekonometrik model yordamida davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarning 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan mamlakatda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2024-yil 28-oktabrdagi 02/11-17/3254-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida respublika hududlaridagi davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarning uzoq muddatli istiqbol ko'rsatkichlarining aniqligini oshirish hamda ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy parametrlariga muvofiqligini ta'minlash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 5 ta ilmiy ish, shundan 4 tasi Oliy attestatsiya komissiyasi ro'yxatiga kiritilgan nashrlarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 140 betni tashkil qiladi.